

"KICHIK MAK TAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA O'QUV FAOLIYATINING AHAMIYATI "

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Ergasheva Muxlisa Abdulla qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ta'limi y xususiyatlari va unda katta ahamiyat kasb etadigan o'quv faoliyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Maktab, ta'lim, texnologiyalar, multimediyalar, yangiliklar, dunyoqarash, tafakkur, zamonaviy va boshqalar.

Zamon rivojlanadi, millatlar, ellatlar kundan-kun turli yangiliklar ichida ravnaq topib boraveradi. Bugungi kunda ta'lim tizimi juda tez sur'atlarda rivojlanmoqda va turli yo'llar orqali rivojlanmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Kelajakning asosini yosh avlodlarimiz barpo etib, ular aynan kelajak uchun kichik maktab yosh davrida olib boriladigan jarayon hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyati asosan 1-4- sinflarni o'z ichiga olib bugungi kunda keng qamrovli tarzda amalga oshirilmoqda va pedagoglar yordamida shakllantirilmoqda. Ushbu yoshdagi bolalar asosan o'yin faoliyatidan chiqib o'qish faoliyatiga yo'naltirilganligi sababli bir qancha qiyinchiliklar tufayli dars holatiga o'rgatiladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning barcha o'qish faoliyati qat'iy ravishda maqsad ga muvofiqlashtirilgandir. Birinchidan, o'quvchilar o'qish, yozish, va hisoblash malakasini egallashlari, arifmetika, ona-tili, tarix, geografiya va tabiyatshunoslikdan geometriyaning elementar asoslaridan ancha katta hajmda bilimni orttirishlari kerak. Ikkinchidan, bolaning bilim darajasi va bilish qiziqishlari kengayadi hamda rivojlanadi.

Uchinchidan bilim jarayonlarining taraqqiyoti, aqliy rivojlanishi yuzaga keladi. Faol mustaqil ijodiy faoliyat uchun qobiliyat tarkib topa di va nihoyat o'qishga bo'lgan yo'nalish, o'qishga nisbatan ma'suliyatli munosabat hissi tarkib topa boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilim jarayonlari va ularning faoliyatida bir qator o'zgarishlarni kuzatish mumkin: Jumladan, bola idrokining o'tkirligi, sofliqi bilan farq qiladi. Kichik maktab yoshidagi

o'quvchilar diqqatining asosiy xususiyati sifatida esa uning ixtiyoriy zaifligini keltirish m umkin. Shuningdek, aynan shu yoshda diqqatni iroda kuchi bilan moslash va uni boshqarish imkoniyati cheklangan bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xotira

VOLUME-2, ISSUE-2

jarayoni haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu davrda so'z mantiq xotirasining va ma'nosiga tushunib esda olib qolishning roli va uning salmog'i kuchayadi, tartibga solish imkoniyatlariga bo'ladi. Birinchi signal sistemasi faoliyatining nisbatan ustunligi tufayli kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda so'z mantiq xotirasi deb atalgan xotiraga qaraganda ko'rgazmali-obrazli xotira ko'proq rivojlangan bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar qoida va tushuntirishlarga qaraganda konkret ma'lumotlarni, voqeliklarni, qiyofalarni narsalarni va faktlarni yaxshi tez esda olib qoladilar va xotiralarida mustahkam saqlaydilar. Shuning uchun ham bolalarga dars davomida ko'rgazmali va yangi texnologiyalar asosida ta'lim berish talab etiladi. Animatsiyalar ,rolli o'yinlar ,turli qiziqarli didaktik o'yinlar bilan olib borilgan darslar doimo natija bergen va o'quvchilarning darsga bo'lgan diqqatini jamlashga va e'tiborini oshirishga sabab bo'lgan. Bugungi kunda ham pedagoglardan talab etiladigan va ularga talab darajasida qo'yiladigan tizimlar sirasiga o'quvchilarning individual faoliyatini hisobga olgan holda ,psixologik holatini rivojlantirgan va hisobga olgan holda dars jarayonini tashkil etish juda zarur va natijalidir.

Xulosa o'mida shuni aytish joizki, o'quvchilarning har qanday faoliyatini rivojlaantirish uchun ularga yoshlidan va eng yaxshi ta'lim-tarbiyaning singadigan jarayonidan boshlash va ularga shunday ta'lim va tarbiya bermoq lozim. Ta'limiy qarashlarning har qanday holatini shakllantirish uchun zamon bilan hamnafas bo'lgan holda darslarni shakllantirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tashkillashtirilsa ,albatta, natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.A.Musurmonova ,X.Ibragimova “ Umumiyy pedagogika “ ,darslik .Toshkent.: Yoshlar nashriyoti uyi ,2020-yil

2.Tolipov.V.K Sharipov.Sh.S. “O'quvchi shaxsi ijodkorligini rivojlantirishning pedagogik asoslari “- T.: “ Fan nashriyoti ” .2012-yil.